
TARG'IBOT TADBIRLARI DAVOM ETMOQDA



Targ'ibot tadbirlari davom etmoqda

Ayni kunda tumanimiz hududlarida “Biz zo’ravnlikka qarshimiz” shiori ostida targ’ibot tadbirlari o’tkazilmoqda. “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazida tashkil etilgan tadbir ham aynan ushbu mavzuga bag’ishlandi.

Tadbirni o’tkazishdan asosiy maqsad ayollarga nisbatan tazyiqlarning oldini olish, gender tenglikni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarni qo'llab quvvatlashdir. Amalga oshirilayotgan bu kabi tadbirlarlar mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash hamda ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgandir, - deydi markaz psixologi Ibrohimjon Ahmatov.

Zotan, ayol - oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko'rki. Ayollar bilan hayotimiz go'zal va mazmunli, xonadonlarimiz obod va nurafshondir.

Xotin-qizlari e'zozlangan, qadrlangan yurtning esa buguni va ertasi farovon bo'ladi.





[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-11-29 15:43:53